

2017 YILDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI


Bugungi kunda mamlakatning iqtisodiy maqomini baholashda xizmat ko'rsatish sohasining tarkibi, miqyosi va rivojlanish darajasi alohida o'rin tutadi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, xizmatlar sohasining o'sishi, zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, rivojlangan davlatlarda xizmatlarining ulushi yalpi ichki mahsulot (YAIM) ning 2/3 dan 3/4 gachani tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasining barqaror o'sishi aholi bandligi darajasiga keskin ta'sir ko'rsatmoqda.

2017 yilda O'zbekiston Respublikasida YAIM da xizmatlarning ulushi 46,2 % ni tashkil etdi (1-rasm).

1-rasm

2017 yilda YAIM ning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibi *, %



*) Dastlabki ma'lumotlar

Ularning eng katta ulushi boshqa turdagi xizmatlar - 24,9 %; tashish va saqlash, axborotlashtirish va aloqa - 11,2 %; savdo, yashash va ovqatlanish xizmatlari - 10,1 % egallaydi (2-rasm).

2-rasm

2017 yilda YaIM da alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ulushi *,%




**) Dastlabki ma'lumotlar*

Hozirgi vaqtda, respublikada xizmatlar sohasida 191,2 mingta faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan, ulardan 136 mingtadan ko'prog'i kichik biznes sub'ektlari (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlar va korxonalar tarkibida eng katta ulushni savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan (33,0 %), yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatayotgan (9,0 %), tashish va saqlash xizmatlari (6,3 %) tashkilotlari va korxonalariga to'g'ri keladi (3-rasm).


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo'lganlarning 49,8 % xizmatlar sohasini tashkil qiladi. Agar xizmatlar sohasidagi bandlikni tarkibiy tuzilmasini tahlil qilsak, katta ulushni ulgurji va chakana savdo, ta'lim, tashish va saqlash, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi faoliyatlariga to'g'ri keladi (4-rasm).

2017 yilda faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasida

band bo'lganlarning ulushi, %




Xizmatlar sohasining dinamik rivojlanishi kichik biznesni ushbu sohada faoliyat yuritish uchun taqdim etilgan imkoniyatlardan kelib chiqadi. Xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturini amalga oshirish doirasida, yangidan tashkil etilgan xizmatlar ko'rsatish bo'yicha korxonalarni texnologik jihatdan jihozlash uchun tadbirkorlik sub'ektlariga imtiyozli kreditlar ajratildi.

Natijada ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 58,3 % tashkil etdi (5-rasm).

5-rasm

**2017 yilda xizmatlar sohasida kichik
tadbirkorlikning ulushi, %**



Aholiga ko'rsatilgan xizmatlar (ta'lim, sog'liqni saqlash, shaxsiy xizmatlar) kichik tadbirkorlikning ana'naviy faoliyat sohasi hisoblanadi. Kichik tadbirkorlikda turli xil professional, ilmiy, texnik va ma'muriy xizmatlar: buxgalteriya xizmatlari, moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda ko'maklashish, ishlab chiqarish va sotish tashkilotlariga, malakali kadrlarni ishga olish uchun ko'maklashish, kadrlarni o'qitish, soliqlarni hisoblash,

reklama, huquqiy maslahatlar, nusxa ko'chirish – chop etish xizmatlari va boshqalar, nisbatan yangi soha hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, mamlakat aholisining bandligini, daromadlarini va turmush darajasini oshirishning eng muhim omillaridan biri sifatida xizmatlar va servis sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash uchun tizimli ishlari davom ettirilmoqda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlanishiga yordam berdi. Natijada, 2010-2017 yillarda bozor xizmatlari hajmi 2,6 martaga o'sdi va 118,8 trln.so'mgacha ko'paydi. Shu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2,3 martaga o'sdi va 3,7 mln.so'mni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval

2011-2017 yillarda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.
I. Xizmatlar hajmi (amaldagi narxlarda), trln. so'm	33,7	42,6	53,7	65,9	75,4	92,5	118,8
<i>o'tgan yilga nisbatan o'sish, %</i>	117,2	114,7	114,4	115,1	114,0	114,5	110,7
<i>2010 yilga nisbatan o'sish, %</i>	117,2	134,4	153,8	177,0	2,0 p.	2,3 p.	2,6 p.
II. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so'm	1148,7	1429,1	1774,0	2141,9	2407,6	2905,6	3668,3


O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarni statistik hisoboti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26.02.2016 yildagi 55-sonli “2016-2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida” gi qarori asosida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturiga muvofiq amalga oshiriladi (6-rasm).

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarni ishlab chiqarish iste'molchilarning daromad darajasi, didi va hoxish-istak darajasiga qarab differentsiyalanadi.

Xususan, 2016 yilga nisbatan transport xizmatlari ulushi 28,2 % dan 30,5 % ga, aloha va axborotlashtirish xizmatlari 6,7 % dan 6,9 % gacha oshdi. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlarning ulushi 10,7 % dan 12,6 % gacha, ta'lim sohasidagi xizmatlar 3,5 % dan 3,7 % gacha oshdi (6-rasm).

6-rasm

2017 yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari tarkibi




Aholi tomonidan har xil turdagi xizmatlarga bo'lgan talabning barqaror o'sishi va davlat tomonidan infratuzilmani (ijtimoiy, transport-telekommunikatsiya, savdo va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan qabul qilingan amaliy choralar xizmatlar sohasining barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirish imkonini berdi.

Respublikada 2010-2017 yillarda moliyaviy xizmatlar - 4,9 martaga, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 4,8 martaga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 4,3 marta, yashash va ovqatlanish - 3,2 martaga, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar – 3,1 martaga, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar - 3,0 martaga o'sishi kuzatilmoqda (7-rasm).

7-rasm

2010-2017 yillarda xizmatlarning ayrim turlarini o'sishi, %




Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish va mustahkamlash, pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lamini kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilotlarning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.

Natijada 2017 yilda moliyaviy xizmatlar hajmi 15023,8 mlrd. so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 136,5 % tashkil etdi (8-rasm).

8-rasm

2017 yilda hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati, %




Hududlar orasida moliyaviy xizmatlar bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari Toshkent sh. (148,6 %), Toshkent (127,1 %), Samarqand (126,2 %), Surxandaryo (125,4 %), viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida (125,9 %) kuzatilmoqda.

Bugungi kunda aloha va axborotlashtirish xizmatlarining jadal o'sishi kuzatilmoqda. 2010-2017 yillarda aloha va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmi 4,3 martaga oshdi (9-rasm).

9-rasm

2010 yilga nisbatan aloha va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o'sishi, %




Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi, iqtisodiyotning turli sohalarida mavjud bo'lgan tovar va xizmatlar bozorini kengaytirish va yangilarini barpo etish, oxir-oqibatda aholi turmush sifatini yaxshilashga olib keladi.

2017 yilda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 8196,7 mlrd.so'mga teng bo'ldi, 2016 yilga nisbatan o'sish 21,3 % ni tashkil etdi. Bu iste'molchilarning telekommunikatsiya xizmatlari (84,8 %), xususan, simsiz aloqa va Internet tarmog'i xizmatlari uchun yuqori talablariga bog'liq (10-rasm).

10-rasm

2017 yilda aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %




■ Telekommunikatsiya xizmatlari

■ Boshqa AKT xizmatlari

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish, yuqori texnologiyali tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha tibbiy xizmat darajasini oshirish, xorijiy amaliyotlarning xorijiy sog'liqni saqlash amaliyotiga keng tatbiq etilishi sog'liqni saqlash xizmatlarining 4,8 barobar o'sishini ta'minladi (11-rasm).

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmining dinamikasi
(amaldagi narxlarda) mlrd.so'm**



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, respublikaning har bir iqtisodiy tuman va viloyatlarida barcha resurslarni milliy va mahalliy manfaatlarda oqilona foydalanishga bog'liqdir.

2010-2017 yillarda xizmatlar soqasining rivojlanish dinamikasi deyarli barcha hududlarda ijobiy rivojlanish tendentsiyasini ko'rsatmoqda (2-jadval).

Hududlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar


	Hajm, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
O'zbekiston Respublikasi 1)	118 811,0	110,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 611,3	108,3
viloyatlar:		
Andijon	6 627,2	105,3
Buxoro	5 421,1	104,6
Jizzax	2 530,8	106,7
Qashqadaryo	5 859,7	104,5
Navoiy	3 068,4	108,0
Namangan	4 999,2	103,6
Samarqand	8 343,2	106,4
Surxondaryo	4 485,5	105,8
Sirdaryo	1 603,8	107,7
Toshkent	9 347,4	105,1
Farg'ona	7 602,2	104,9
Xorazm	3 645,5	108,2
Toshkent shahri	38 659,9	118,0

1) Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni qo'shgan holda

2017 yilda xizmatlarning umumiy hajmida eng yuqori ulush quyidagi Toshkent sh. (32,5 %), Toshkent (7,9 %), Samarqand (7,0 %), Farg'ona (6,4 %), Andijon (5,6 %), Qashqadaryo (4,9 %), Buxoro (4,6 %) viloyatlariga to'g'ri keladi (12-rasm).

12-rasm

**2017 yilda respublikada hududlarning ulushi
(umumiy xizmatlar hajmida), %**




Aholi soni aholi jon boshiga xizmatlar sohasini rivojlantirish ko'rsatkichiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Masalan, Navoiy, Buxoro viloyatlarida aholi soni nisbatan kam, aholi jon boshiga ko'rsatkichi yuqori, aholi zich joylashgan hududlar Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo viloyatlaridan farqliroq (13-rasm).

13-rasm


2017 yil uchun hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlari



Shu bilan birga, sanoat rivojlangan hududlarda (qazib-chiqaruvchi sanoatidan tashqari) - Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida, Namangan, Jizzax va Surxondaryo viloyatlariga nisbatan o'rtacha aholi jon boshiga xizmatlar sohasi ko'rsatkichlari yuqoriligi qayd etildi (14-rasm).

14-rasm

2017 yilda hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Xizmatlar sohasini keng qamrovli rivojlanishi, aholi turmush darajasini oshirish va samarali ish bilan iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash dolzarb masalalar hisoblanadi.

Keyinchalik yangi ish o'rinlarini yaratish orqali iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlash, investitsiya, soliq, pul-kredit siyosatini, fan va texnik siyosatini takomillashtirish va yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali kichik biznesni rivojlantirish bozor xizmatlarining tarmoqlar tarkibida, sifatli tarkibiy o'zgarishlarga olib keladi.

Bu O'zbekistonda xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishning oqilona tarkibini shakllantirish, aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirish imkonini berdi.